

O'ZBEK TILIDA NUTQIY MULOQOTNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Bobomurodova Guzal Olim qizi
Buxoro davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi

Annotation. Ushbu maqolada O'zbek tilida nutqiy muloqotning psixolingvistik xususiyatlari, zamonaviy grammatik adabiyotlarda faol qo'llaniladigan, ammo turli yo'llar bilan talqin qilinadigan tushunchalari, semantik-psixologik qarashlar, psixolingvistik tahlil, nutqiy muloqotga kirisha olish qobiliyati, bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lgani, unga odam hayoti mobaynida o`rganib borishi ifodalangan.

Kalit so'zlar: Psixolingvistika, nutqiy muloqot, semantik-psixologik qarashlar, nutqiy faoliyat.

Аннотация. В данной статье представлены психолингвистические особенности речевого общения на узбекском языке, понятия, которые активно используются в современной грамматической литературе, но трактуются по-разному, семантико-психологические взгляды, психолингвистический анализ, умение вступать в речевое общение, что на первый взгляд легко представляется межличностным общением на самом деле очень сложный процесс, к которому человек привыкает на протяжении всей жизни.

Ключевые слова: психолингвистика, речевая коммуникация, семантико-психологические взгляды, речевая деятельность.

Annotation. This article presents the psycholinguistic features of speech communication in the Uzbek language, concepts that are actively used in modern grammatical literature, but are interpreted in different ways, semantic and psychological views, psycholinguistic analysis, the ability to enter into speech communication, which at first glance easily appears to be interpersonal communication is actually a very complex process to which a person gets used to it throughout his life.

Keywords: psycholinguistics, speech communication, semantic and psychological views, speech activity.

Psixolingvistika - nutqning paydo bo`lishi, hamda, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o`zaro bog`lanishi holatida o`rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikaning sintezidan paydo bo`lgan. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo`li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbayi bo`yicha tilshunoslikka yaqin bo`lgan psixolingvistika o`z

tekshirish yo'llari bo'yicha psixologiyaga yaqin turadi. Unda o'zaro bog`lanishli eksperiment, "semantik differensial" kabi va boshqa eksperimental usullar qo'llanadi. Psixolingvistika bir qator amaliy masalalar [ona tili, ayniqsa, xorijiy tilni o'rgatish; mактабгача yoshdagи bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari; miyadagi nutqiy markazlar kasallikkлari klinikasi; nutqiy tasir ko'rsatish muammolari (xususan ommaviy axborot vositalari faoliyatida va targ`ibot ishlarida); sud psixologiyasi va kriminalistika (masalan, kishilarni ularning nutq xususiyatiga qarab tanib olish, aniqlash); mashina tarjimasi hamda nutqiy axborotni EHMga kiritish muammolari va boshqa]ni nazariy jihatdan tushuntirish zarurati tufayli o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'lган.

Psixologik komponentlar strukturalizm, etnolingvistik nazariyalar, semiotika yo'nalishlarida o'rganilgan va tadqiq etib kelinmoqda. SHunga ko'ra, psixologik yo'nalishlarning muhim ko'rinishlari til uchun xarakterli bo'lib, psixolingvistikaning yuzaga kelishini ta'minlagan. Ma'lumki, psixolingvistika sohasi XX asrning 60-yillarida psixologiya va tilshunoslik fanlarining hamkorligi natijasida yuzaga kelgan. O'zbekistonda ushbu sohada bir qancha ishlar bajarilgan bo'lsada, haqiqiy ma'nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda.

Psixolingvistikaning asosiy tadqiq obyekti nutqiy faoliyat subyekti bo'lган shaxs, til sohibi hisoblanadi. Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga katta hissa qo'shgan A.A.Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasi haqida yozar ekan, "tilning amal qilishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish" ushbu sohaning asosiy maqsadi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Psixolingvistik tahlilda lisoniy ong masalasi ham markaziy o'rnlardan birini egallaydi. "Lisoniy ong tashqi faoliyatni til belgilari vositasida rejalashtirish va boshqarishdan iborat bo'lган ichki jarayondir". U, xususan, muloqotning eng oliv birligi bo'lган matn yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi. nutqning psixolingvistik tadqiqida eng muhim bo'lган obyektlardan biri til sohibi – matn tuzuvchi va retsipient faoliyatidir. Ma'lumki, matn inson tomonidan inson uchun yaratiladi. Bu matn yaratilishi va uning idrokidan iborat faoliyat zanjirining antropotsentrik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Psixolingvistik tahlilda muallif-retsipient munosabatlarida amal qiluvchi lisoniy va nolisoniy omillar borki, ularni o'zaro uyg'unlikda tadqiq etish kutilgan natijalarni olishga imkon yaratadi. **Matnning** psixolingvistik tahlil etish haqidagi ayrim tadqiqotlarda uning kreollashtirilganlik, shakliy uzilish hamda interpretativlik xususiyatlari ham e'tiborga olinishi lozimligi ta'kidlanadi.

Shaxs masalasini yoki muammosini tadqiq etuvchi fanlarning murakkab fan sifatida namoyon bo'lishi aynan shaxsning o'zgaruvchan xulq-atvori va psixikasidir. Shaxs psixikasiga samarali ta'sir ko'rsatish usullaridan biri bu muloqot ekanligi

psixologiya fanida isbotlangan nazariyalardan biridir. Muloqotning perceptiv vazifasi va interaktiv vazifasi bu nazariyalarni real ekanligini isbotlaydi.

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlar ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faollikkabi mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlar (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog`liqdir. Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo`lib, unga odam hayoti mobaynida o`rganib boradi.

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni o'zlashtirish va o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro'yobga chiqariladi.

Semantik-psixologik qarashlarda nutqiy jarayoni aynan nutqning qurilishi, nutqning vaziyati, shuningdek, nutqning kontekstda tutgan o'rni masalalari to'laqonli ravishda o'rganilib kelinmoqda. Har bir normal kishi o'zini o'zgalarni tinglashga, o'z flkrini birovlarga yetkazishga, ya'ni gapirishga, fikrlarini ba'zan yozma tarzda bayon etishga tug'ma qobiliyatliday tasavvur qiladi. Lekin aslida ana shu birovlarni tushunish va o'z fikrlarimiz, o'ylarimizni birovlarga yetkaza olish qobiliyati bizning insoniy munosabatlar tizimida ekanligimizni, har birimiz o'zimizga o'xshash inson jamiyatisiz mavjud bo'la olmasligimizni bildiradi.

Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: "Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi: individlarning o'zaro ta'sir jarayoni; individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni; bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni; bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni; bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati; shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita "yuzma-yuz" bo'lishi; u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va boshqalar) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; subyekt-subyekt tipli (dialogik, sheriklik) yoki subyekt-obyektli (monologik) bo'lishi mumkinligini professor V.Karimova ta'kidlaydi. Insoniy munosabatlar o'zaro shunday ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi.

Bunday jarayon dastlab kishilar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi.

Kishilar muloqotda bo'lgani sari ular o'rtasida umumiylit, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladi, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadi yoki "yarimta jumladan" ham fikr ayon bo'ladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni — bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin. (Er-xotin, qaynona-kelin).

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari — o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat kishi muloqotdan, ayniqsa uning norasmiy, samimi, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan kishilar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Oxirgi paytlarda shunday kasb-hunarlar soni ortdiki, ular sotsionomik guruh kasblar deb atalib, ularda «odam-odam» dialogi faoiiyatning samarasini belgilaydi. Jumladan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar, marketing va boshqalar.

Lingvistik psixologizmning paydo bo'lishida naturalizm va logizmning alohida o'rni bor. Psixologiya ana shu jarayonlarning bir ko'rinishi bo'lib, psixologizm tilning boshqa xususiyatlarini, xususan, uning nutqiy faoliyati bilan bog'liq jihatlarini o'rganadi. Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari, ya'ni verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to'xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig'i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'rmini bosadi, bunday vositalarni noverbal vositalar deyiladi.

Demak ko'rribi turibdiki muloqotning ta'siri shaxsga nisbatan keng ko'lamli psixik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Umaman olganda muloqot insonning ehtiyojlari ichida eng yirik va muhim ehtiyoj sifatida namoyon bo'lar ekan, xech bir inson uzoq vaqt muloqotsiz yashay olmaydi va uning hayoti ham mazmun kasb etmaydi. Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o'zaro ta'sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Hakimovich, Т. М. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA TAMOYILLARI. Gospodarka i Innowacje., 48, 341-347.
2. Hakimovich, Т. М. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH Bobomurodova, G. (2023). THEORETICAL FRAMEWORK FOR THE DEVELOPMENT OF MOTIVATION FOR LEARNING IN TURKMEN AND RUSSIAN STUDENTS. Science and innovation, 2(B10), 478-482.
3. Бобомуродова, Г. (2023). ЭМПАТИЯ КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНЫХ ПРЕДУБЕЖДЕНИЙ У СТУДЕНТОВ. Евразийский журнал академических исследований, 3(9), 179-182.
4. Bobomurodova, G. (2023). THEORETICAL FRAMEWORK FOR THE DEVELOPMENT OF MOTIVATION FOR LEARNING IN TURKMEN AND RUSSIAN STUDENTS. Science and innovation, 2(B10), 478-482.
5. Бобомуродова, Г. (2023). ЭМПАТИЯ КАК ФАКТОР СОЦИАЛЬНЫХ ПРЕДУБЕЖДЕНИЙ У СТУДЕНТОВ. Евразийский журнал академических исследований, 3(9), 179-182.
6. Toshov, M. (2024). ATTRACTING INVESTMENT TO THE DEVELOPMENT OF BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS. Modern Science and Research, 3(6), 696- 702.
7. Toshov, M. (2024). EFFECTIVE METHODS OF CREATING JOBS AND PROVIDING EMPLOYMENT IN CORPORATE ENTERPRISES. Modern Science and Research, 3(6), 710-715.
8. Toshov, M. (2024). WAYS TO DEVELOP AGROTOURISM AND ITS INFRASTRUCTURE IN POST-PANDEMIC CONDITIONS. Modern Science and Research, 3(6), 723-729.
9. Toshov, M. (2024). IMPROVING PUBLIC EDUCATION SYSTEM MANAGEMENT BASED ON MODERN MANAGEMENT APPROACHES. Modern Science and Research, 3(6), 716-722.
8. Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков. АА Ахмедов, ММ Зикиряева. Новый день в медицине.151-154, 1(29)20
- 10.Зикиряева, М. М. (2024). Формирование навыков логического мышления у студентов-медиков: методы и способы. Ta'lif innovatsiyasi va integratsiyasi, 14(4), 151-155.
- 11.ММ Зикиряева ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ВООБРАЖЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ // Новый день в медицине. - 2020. - №1. - С. 151-154.

- 12.Манзура Зикиряева ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ // Евразийский журнал академических исследований. - 2023/3/14. - №3 Part 2. - С. 159-164.20
- 13.О методологии психологического образования. А.А Ахмедов, М.М Зикиряева. Вестник интегративной психологии 19 (79), 63-67, 2019/9/3
- 14.Psychology in teaching english language. “Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture”. Zikiryayeva Manzura Mavlonovna, Hakimova Muhabbat Alimovna, Volume 2 Issue 5, May 2022. ISSN 2181-2888. 228-232 р
- 15.Тиббиёт олий таълим муассасалари талабаларини мантикий тафаккурини ривожлантиришнинг психологик механизмлари. Зикиряева M.M. Journal of new century innovations. 2022.11.07,16(3), 33–39 р.